

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Sh.T.Mavlonova**

Inkluziv ta'lif o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari ..... 214

**Z.M.Xursanova**

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish mazmuni ..... 219

**A.B.Mirzayev**

Effective ways to use the task-based approach in foreign language courses ..... 223

**Sh.A.Pakirdinova**

Blended learning texnologiyasining nazariy asoslari va uning ta'lif jarayonida ahamiyati ..... 226

**Sh.A.Pakirdinova**

Comparative analysis of online and traditional classroom learning ..... 231

**M.M.Umaralieva**

Fostering autonomy and engagement in higher education: self-regulated learning with multimedia tools ..... 235

**Z.N.Usmonov**

Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi bolalar jismoniy tarbiyasi ..... 239

**A.T.Akbarov**

Turli maktab yoshidagi o'quvchilar organizmining funksional holatini o'ziga xos xususiyatlari ..... 246

**U.K.Rahmonov**

Musiqa madaniyat darslarini olib borishda ta'lif beruvchining o'mni ..... 252

**U.K.Rahmonov**

Musiqa darslarida zamonaliv texnologiyalarni qo'llashda loyiha texnologiyasini ahamiyati ..... 256

**V.Abdurakhmanov**

"The challenges of teaching english to international students" ..... 261

**D.Y.Irmatov**

Tarbiyachining kasbiy nazari va kasbiy amaliy tayorgarligi mazmuni monitoringi va maktabgacha ta'lif yoshidagilar "Ontogonez"iga mansub bilimlar ..... 265

**Н.Собиров, О.А.Акбаров, Э.Ф.Гиздулин**

Инновационная педагогическая деятельность ..... 269

---

**IQTISODIYOT****M.O.Baltabayeva, K.N.Raximova, M.K.Axmadiyeva**

Ayollarning iqtisodiy mustaqilligi oilaning yaxshi yashashiga qo'shgan hissasi ..... 273

**K.N.Raximova, M.O.Baltabayeva, M.K.Axmadiyeva**

Yashil iqtisodiyot fanida yashil iqtisodiyotga o'tish dolzarbliji va konseptual asoslari ..... 276

---

**FALSAFA****N.M.Axmadiyev**

Ijtimoiy rivojlanish va yoshlarni dunyoqarashida manfatlar to'qnashuvi ..... 281

**I.Toirov**

Milliy davlatchilik asoslарини mustaxkamlash va fuqarolik jamiyati barpo etishning falsafiy jihatları ..... 284

**I.A.Nurmatova**

Jamiyat ma'nnaviy muhitida oila institutining roli ..... 289

---

**SIYOSAT****B.P.Zokirov**

Jinoi aktivlarni qaytarish bo'yicha universal va mintaqaviy xalqaro-huquqiy asoslari ..... 293

**S.M.Xoliqov**

Davlatning mudofaa qobiliyatining huquqiy asoslari ..... 301

**B.P.Zokirov**

Xorijiy ilg'or tajribalar jinoi aktivlarni qaytarish mexanizmlarini rivojlantirishning muhim omil sifatida ..... 304

**S.M.Xoliqov**

Milliy xavfsizlikni ta'minlashda parlament quyi palatasi faoliyatidagi muammolar ..... 314



UO'K:37.091.3.811.111

## BLENDED LEARNING TEKNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIDA AHAMIYATI

### ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТЕХНОЛОГИИ СМЕШАННОГО ОБУЧЕНИЯ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

### THEORETICAL FOUNDATIONS OF BLENDED LEARNING TECHNOLOGY AND ITS SIGNIFICANCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

**Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna**   
Farg'onan davlat universiteti, katta o'qituvchi

#### *Annotatsiya*

*Ushbu maqola aralash ta'limi an'anaviy yuzma-yuz ta'limi onlayn va raqamli texnologiyalar bilan birlashtiruvchi zamonaviy pedagogik yondashuv sifatida ko'rib chiqadi. Ushbu yondashuv talabalar uchun moslashuvchanlik, mustaqil o'qish imkoniyatlari va interaktiv vositalarga kirish imkonini yaratib, o'quv jarayonini boyitadi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'ssatadiki, aralash ta'lum o'qitish usullari va modellarining samarali kombinatsiyasi bo'lib, talabalar qiziqishini va motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tizimda talabalar o'quv jarayonida faol ishtirot etadi, o'z ehtiyojlariga mos usullarni tanlaydi va turli manbalardan foydalananish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aralash ta'luming asosiy afzallikkali virtual sinflar, onlayn baholash va moslashuvchan dars jadvalini o'z ichiga oladi. Innovatsion texnologiyalar bilan boyitilgan aralash ta'lum zamonaviy ta'lum tizimida muhim o'rinn tutib, ta'lum samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi.*

#### *Аннотация*

*В данной статье рассматривается смешанное обучение как современный педагогический подход, который интегрирует традиционное очное обучение с онлайн и цифровыми технологиями. Этот подход улучшает процесс обучения, предоставляя студентам гибкость, возможности для самостоятельного изучения и доступ к интерактивным инструментам. Результаты исследований показывают, что смешанное обучение эффективно сочетает методы и модели преподавания, способствуя повышению вовлеченности и мотивации студентов. В рамках этой системы студенты активно участвуют в образовательном процессе, выбирают методы, соответствующие их потребностям, и получают доступ к различным ресурсам. Ключевые преимущества смешанного обучения включают виртуальные классы, онлайн-оценивание и гибкие расписания. Обогащённое инновационными технологиями, смешанное обучение играет важную роль в современных образовательных системах, способствуя повышению эффективности обучения.*

#### *Abstract*

*This article discusses blended learning as a modern pedagogical approach that integrates traditional face-to-face education with online and digital technologies. This approach enhances the learning process by offering students flexibility, opportunities for independent study, and access to interactive tools. Research findings highlight that blended learning effectively combines teaching methods and models, boosting student engagement and motivation. Within this system, students actively participate in the learning process, choose methods suited to their needs, and access diverse resources. Key advantages of blended learning include virtual classrooms, online assessments, and flexible schedules. Enriched with innovative technologies, blended learning plays a crucial role in modern education systems, contributing to improved educational outcomes.*

**Kalit so'zlar:** aralash ta'lum, ta'lum texnologiyalari, innovatsion yondashuv, moslashuvchan jadval, virtual sınıf, onlayn resurslar, interaktiv vositalar

**Ключевые слова:** смешанное обучение, технологии обучения, инновационный подход, гибкое расписание, виртуальный класс, онлайн-ресурсы, интерактивные инструменты

**Key words:** blended learning, educational technologies, innovative approach, flexible schedule, virtual classroom, online resources, interactive tools

#### **Kirish**

Aralash ta'lum (Blended Learning) bugungi kunda zamonaviy ta'lum tizimida jadal rivojlanib, talabalarga o'zining ko'plab afzallikkali bilan ajralib turadigan ta'lum shakli hisoblanadi. Ushbu usul masofaviy ta'lum, onlayn o'quv materiallari va an'anaviy, yuzma-yuz o'quv faoliyatining integratsiyasiga asoslanadi, bu esa o'quvchilarga guruhda yoki individuallikda, o'qituvchi

**PEDACOGIKA**

rahbarligida samarali ta'lif olish imkoniyatini yaratadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshqa pedagogik texnologiyalardan farqli o'laroq, aralash ta'lif o'ziga xos aniq bir mualliflikka ega bo'lmay, o'qitish usullari va tamoyillarini takomillashtirishga bo'lgan turli urinishlar natijasida rivojlangan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Tadqiqotchi K.Prokter [8] o'zining ilmiy izlanishlari davomida Blended learning (Aralash ta'lif)ni turli xil o'qitish usullari, o'qitish modellari va o'quv usulublarining samarali kombinatsiysi deb ta'kidlaydi. O'qitish usullari, modellari va o'quv usulublarining turli xil ko'rinishda bo'lishi talabaga bir qancha o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Chunki ularda tanlash imkoniyatlari bo'ladi va o'zlarining extiyojlaridan kelib chiqib, ma'qul bo'lgan uslni tanlab o'rganadi. Chu, Jons va Ternerlarning [2] ta'kidlashlaricha Aralash ta'lif ikki turdag'i muammoli yo'nalishni o'zida mujassamlashtiradi, ta'lif va ta'lif texnologiyalarini. Aralash ta'limga oid bir nechta ta'riflar mavjud. Ushbu yondashuv axborotni taqdim etishda turli pedagogik usullarni qo'llashni, ta'lifni tashkil etishda va jarayon davomida esa axborot texnologiyalaridan yakka va guruhli faoliyatlarini an'anaviy tarzda tashkil etish orqali foydalanishni o'z ichiga oladi. Bunday xilma-xil yondashuv talabalarni charchatmaydi va ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. [1]

Bizning tadqiqotimiz BL (aralash ta'lif) ni o'ziga xos xusuiylarini, uning afzallik taraflari va zamonaviy ta'lif tizimidagi o'mini yanada kengroq yoritib berishga asoslanadi. Tadqiqotimizda Aralash ta'lif (BL) tushunchasini ochib berish ga xarakat qilamiz. BL aralash ta'lif o'z nomi bilan ikki usulda ana'anaviy usuldag'i o'qitish to'g'ridan to'g'ri sinf xonada o'quvchilarga bilim berish hamda online o'qitish usuli kompyuter texnologiyalarini orqali xamkorlikda o'qitishning integratsiyasini amalga oshiradi.

Ana'anaviy o'qitish o'qituvchi va talaba o'rtasida munosabatlar o'matishda muhim omil hisoblanadi. Chunki yuzma yuz olib borilgan darslarda o'qituvchi talabaning xulq-atvori, odob axloqi hamda jamoada ishslash ko'nikmalari qay darajada ekanligini bilib oladi. Bu omillar nafaqat darsda bajarilgan topshiriqlar, faol qatnashishi kabilarni o'z ichiga oladi balki darsdan tashqari muassasa hududida tengdoshlari bilan suxbatlashishi, fikr almashishi orqali bir birlarini yanada yaqinroq bilishga xizmat qiladi. Ammo texnologiyalar to'xtovsiz rivojlanib borayotgan bu davrda ta'lif tizimida xam zamon bilan ham nafas bo'lish talab qilinadi. Shuning uchun ham, talabalarni jahon standartlariga hamohang ta'lif olishlari uchun ulkan imkoniyatlar, qulayliklar va innovatsion texnologiyalar asosida darslarni olib borish har bir olyi ta'lif muassasini usuvor yo'nalishlaridan biridir.

Aralash ta'lif zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri bo'lib, u ko'plab tadqiqotchilar tomonidan turlicha izohlanadi. Ushbu atama ko'pincha integrallashgan, moslashuvchan, aralash, ko'p rejimli yoki gibrid o'rganish shakllarini ifodalash uchun ishlataladi[2]. Aralash ta'lif ko'pincha an'anaviy, yuzma-yuz o'qitish usullari bilan onlayn va raqamli ta'lif platformalarini birlashtiradi. Bu turdag'i ta'lif yondashuvi talabalar va o'qituvchilarga turli manbalardan foydalanish imkonini beradi, shuningdek, turli xil o'quv ehtiyojlariga moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Chunki bu usul talabalarni mustaqil o'qishga undaydi va o'quv jarayonida faol ishtiroy etish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, moslashuvchan jadval va interaktiv vositalar o'quv tajribasini yanada boyitadi. Shu sababli, aralash ta'lif ko'pincha zamonaviy ta'lif muassasalari tomonidan joriy qilinmoqda va bu o'quv jarayonini yanada takomillashtirib talabalarni turli muhitda samarali ta'lif olish imkoniyatini yaratib beradi.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Tadqiqotchilardan L. G. Babakhodjayeva [1] quyidagicha ta'rif beradi: Aralash ta'lif — bu an'anaviy kunduzgi, masofaviy va mustaqil ta'lifni birlashtiruvchi o'qitish tizimi bo'lib, unda o'qituvchilar, ta'lif oluvchilar va axborotning interfaol manbalari o'rtasidagi o'zaro ta'sir muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon doimiy aloqada bo'lib, o'quv jarayonining barcha komponentlarini (o'qitish maqsadi, mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari va vositalari) bir butunlikda ko'rsatadi. Demak, Aralash ta'lifning asosiy maqsadi ta'lif jarayonining samaradorligini oshirish, har bir talabaning shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olib, ta'lif oluvchiga yanada keng imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli, zamonaviy ta'lif tizimida aralash ta'lif muhim o'rinn tutadi va uning roli tobora ortib bormoqda.

Shuningdek, Jahon olimlari Edvard [3] va R.Ghazalilarning [5] olib borgan tadqiqotlarida ta'kidlashlaricha, BL yondashuvi talabalarga o'quv jarayoni, sharoitlari va qanday o'quv

materiallaridan foydalanishlari mumkinligi haqida bilishlarini ta'minlaydi natijada talabalarning faolligi va o'rganishga bo'lgan munosabatlari yanada oshirilishiga xizmat qiladi. Ana'naviy tizimda ta'lif olish talabalarga bunday imkonyatlarni qisman ta'minlab beradi. Lekin Aralash ta'lif keng miyosdagi imkoniyatlarni o'z ichiga oladi ,bunga quyidagilar misol bo'lishi mumkin:



**Yuzma-yuz ta'lif (Face to Face)** – talabalarda darsda to'liq o'qituvchi va sinfdoshlari bilan hamkorlikda ishlash orqali o'zlarini xulq-atvorlari, qadriyatlari va shaxsiyatlari namoyon qilishadi. Bu ularga darsdan ko'proq ijobjiy natijaga erishishlarini ta'minlaydi.

**Talabalarni kurs mazmunidan oldindan bilishlari**-bunda talabalar darsga bog'liq o'qitish materialari, turli xil qiziqarli axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan olingan manbalar shu bilan birgalikda darsga taa'luqli videolar, saytlar va electron kitoblardan foydalanish imkoniyatiga xam ega bo'ladilar.

**Tengdoshlari bilan ishlash**- ta'lif olish dargohida talabalar o'rganish bilan birgalikda hayotiy, ijtimoiy ko'nikmalarini namoyon qilishlari bilan rasmiy va norasmiy munosabatlarni o'rnatish imkoniyatlariga ega bo'lishadi.

**Muhokama qilish va fikr almashish** – sinfda o'qitish nafaqat talabalarning o'qituvchi bilan o'zaro munosabatini ta'minlab beradi balki, puxta o'ylangan va talabalarning qiziqishlarini hisobga olgan xolda tuzilgan manbalar asosida fikr almashish, turli mazularni tengdoshlari bilan muxokama qilish imkoniyatini beradi. Bu albatta eng avvalo samarali muloqotni rivojlantiradi va ularning xavotirlanishlarini bartaraf qilib o'zlariga bo'lgan ishonchlarini yanada ortirradi. Shuningdek tinglash ko'nikmalarini oshirishda xam muxim axamiyatga ega.

**Virtual sinf** - bu talabaga istalgan joyda, istalgan vaqtida va istalgan ustozdan bilim olish imkoniyatini beradi. Talabalar qaysi hududda joylashganidan qat'i nazar, tengdoshlari va o'qituvchisi bilan virtual sinfda ishtirok etishlari mumkin. Shuningdek, ana'naviy darslarga muntazam qatnasha olmaydigan talabalar ushbu moslashuvchan imkoniyatdan foya olishlari mumkin. Rivojlanib kelayotgan bu davrda talabalar boshqa mutaxassislar bilan ham bog'lanib, o'z bilim va ko'nikmalarini kengaytira oladi. Shu bilan birga talabalar dunyoning boshqa qismidagi hamkasblari bilan tenglashadilar va madaniyatlararo tajribaga ham ega bo'lishadi.

**PEDAGOGIKA**

**Onlayn baholash**-Talabalarnga vazifani vaqtida bajarishlari uchun motivatsiya berish maqsadida feedbackdan foydalaniladi. Bu tizim talabalar bilimini qisqa vaqt ichida obektiv baxolash va bilimlarini yanada mustaxkamlash uchun ishonchli manba hisoblanadi.

**O'quv modullariga kirish va davom ettirish**- Talabalar ana'naviy sifxonada qatiy dars jadvali, sinf topshiriqlari, imtixonga tayyorgarlik ko'rish tashvishlari bilan o'z ijodkorliklarini namoyish qilishda kamroq imkoniyatga ega bo'lishadi. Ammo aralash ta'lum ularni ijodlarini ko'rsatish va feedback olishlri uchun qulay platformalarni ta'minlab beradi. Shuningdek, global mavzular bo'yicha fikr-mulohaza qilish imkoniyatiga xam ega bo'ladilar.

**Vebinlar** – AKT asosida tashkillanadigan aralash ta'lumning asosiy xususiyatlardan biridir. Bu talabalarni Skype, Google talk va shu kabi dasturlarda o'zlariga ma'qul mavzularda tashkillangan seminarlarga qatnashishlarini ta'minlab beradi.

**YouTube platformasida ma'ruzalar** – Aralash ta'lum yana afzallik tomonlardidan biri talabalarni o'rganayotgan kursning mazmuni bo'yicha bir qancha manbalardan mutaxassislarining turli ma'ruzalarini bemalol ko'rishadi. Bundan tashqari, Muassasa o'qituvchilarining video ma'ruzalarini xam yuklash orqali darsga qatnasha olmagan talabalarga o'zlashtirishlari uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi.

**Video va audio orqali onlayn ta'lum** - Talabalarga audiolar, videolar yordamida turli masalarni hayotiy misollar bilan bo'g'lab, qiziqarli va oson usulda yoritib berish imkoniyatini yaratadi.

Aralash ta'lum (BL) talabalarga keng imkoniyatlarni ochib bergenligi sababli unda o'qishga talab kundan kunga ortmoqda deb ta'kidlaydi Ismoil A.O va boshqa tadqiqotchilar [6]. An'anaviy darslarni onlayn ta'lum elementlari bilan birgalikda olib borish yondashuvi talabalarga ko'proq moslashuvchanlik va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Buning natijasida talabalar o'quv jarayonida katta ishtiyoq xamda faolroq ishtirok etishga qat'iyatliligi ortadi.

Ma'lumki Aralash ta'lumning ommalashib borishi bir nechta omillarni o'z ichiga oladi. Jumladan, Internet va raqamli texnologiyalar rivojlanishi, onlayn resurslar va platformalarning ko'payishi aralash ta'limga yanada talabni oshiradi.

J.Puning [7] xulosasiga ko'ra, bu ta'lum tizimi kelajak uchun yetakchi ta'lum yondashuvi sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, 21-asning eng yaxshi o'nta ta'lum yondashuvlari qatoriga kiradi deb ta'kidlaydi. Aralash ta'lum nafaqat ta'lum sifatini oshirishga, balki o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashishga, interaktivlikni kuchaytirishga va innovatsion yondashuvlarni qo'llashga yordam beradi. Bu esa kelajakdagagi ta'lum jarayonlarini yanada samarali va qiziqarli olib borishga imkoniyat yaratadi.

**XULOSA**

Aralash ta'lum bugungi kunda zamонави та'lум тизимининг мухим yondashuvi hisobланади. Ushbu model an'anaviy yuzma-yuz darslarni masofaviy va onlayn o'qitish bilan birlashtirib, samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, aralash ta'lum o'qitish usullari, modellar va usulblarning samarali kombinatsiyasini ta'minlaydi, bu esa talabalarning qiziqishini oshiradi va ularga mos keluvchi usullarni tanlash imkoniyatini beradi. Mingbaevaning tadqiqotlariga ko'ra, turli pedagogik va texnologik yondashuvlarning uyg'unligi talabalarni charchatmay, motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu ta'lum shakli yuzma-yuz muloqot orqali jamoaviy hamkorlik, axloqiy rivojlanish va shaxsiy bilimlarni oshirishni ta'minlaydi, shu bilan birga virtual sinflar, onlayn resurslar va moslashuvchan jadval orqali talabalar uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Shuningdek, talabalar o'z bilimlarini mustaqil ravishda boyitishlari, tengdoshlari bilan hamkorlik qilishlari va interaktiv muhitdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Aralash ta'lum kelajakdagagi ta'lum yondashuvlarining yetakchi shakli sifatida rivojlanmoqda. Ushbu yondashuv ta'lum sifatini oshirish, talabalarning ehtiyojlariga moslashish va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali ta'lum jarayonini samarali va qiziqarli qiladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- Babaxodjaeva L.G. Talabalarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayonida aralash ta'lum modelini joriy etishning nazariy va amaliy asoslari, avtoreferat. — T.: CHDPU, 2021. — 16 b.
- Chew E., Jones N., Turner D. Critical Review of the Blended Learning Models Based on Maslow's and Vygotsky's Educational Theory in Hybrid Learning and Education. Berlin, Springer Verlag Publ., 2008, pp. 40–53. DOI: 10.1007/978-3-540-85170-7\_4.

3. Edward, C. N., Asirvatham, D., & Johar, M. G. M. (2018). Effect of blended learning and learners' characteristics on students' competence: An empirical evidence in learning oriental music. *Education and Information Technologies*, 23, 2587–2606.
4. Garrison, D. R., & Kanuka, H. (2004). Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. *The Internet and Higher Education*, 7(2), 95–105.; Moskal, P., Dziuban, C., & Hartman, J. (2013). Blended learning: A dangerous idea? *The Internet and Higher Education*, 18, 15–23.
5. Ghazali, R., Soon, C. C., Has, Z., Hassan, S. N. S., & Hanafi, D. (2018). The effectiveness of blended learning approach with Student's perceptions in control systems engineering course. *International Journal of Human and Technology Interaction (IJHaTI)*, 2(2), 103–108.
6. Ismail, A. O., Mahmood, A. K., & Abdelmaboud, A. (2018a). Factors influencing academic performance of students in blended and traditional domains. *International Journal of Emerging Technologies in Learning*, 13(02), 170–187.
7. Poon, J. (2014). A cross-country comparison on the use of blended learning in property education. *Property Management*, 32(2), 154–175.
8. Procter C.T. Blended Learning in Practice. Available at: [www.ece.salford.ac.uk/proceedings/papers/cp\\_03.rtf](http://www.ece.salford.ac.uk/proceedings/papers/cp_03.rtf) (accessed 17.03.2016).